

BOLALARDA MUVAFFAQQIYATLI TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH USULLARI VA VOSITALARI

¹Islomova Ozoda Isomiddin qizi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:²J.B.Majidov, JDPU umumiy psixologiya kafedrasida katta
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiyani tashkil etish usullari va vositalari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, ishonch hissi, qo'llab-quvvatlash, pedagogik mahorat, bilimdonlik darajasi.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Yuksak ma'naviy ta'lim-tarbiya aslida insonga ona suti, ota o'giti va ajdodlar merosi yordami bilan o'tadi. Ma'lumki, ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida ta'lim va tarbiya yotadi. Ta'lim-bu maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Tarbiya-bu o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamoloti, dunyoqarashini, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Ta'lim va tarbiya – birining o'rnini biri to'ldiruvchi ne'matdir. Ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish va bolalarda muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiyani tashkil etish uchun o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik talablarga javob bera oladigan pedagog zarurdir. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarda tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolish kerakligini, nimani esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolish kerakligini, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini tushuntirib o'tishi lozim. Albatta, ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi bilimlar, ko'nikma va malakalarning juda yuqori darajasi asosan ta'limning mazmuni bilan, ta'lim metodikasining takomillashuvi, o'qituvchining mahorati bilan ta'min etiladi. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmasligi xususida atroflicha mulohazalar yuritilgan.

Bugungi kunda hech kim: “Yomon o‘quvchilar yo‘q, yomon o‘qituvchilar bor” degan formulani hech so‘zsiz qabul qilavermaydi. O‘quvchilarning o‘zlashtirmasligida hech kim o‘qituvchilarni yoppasiga ayblab o‘tirmaydi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’kidlashicha, “o‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” deya ota-onalardan, “usuli ta’lim ko‘rmagan” deya muallimlardan noliydi. Demak, ta’lim-tarbiyada oila, mahalla, jamoat, maktab hamkorligi hamda bu boradagi muammolar bugun paydo bo‘lgan emas. Bu hamkorlik asosida aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘nlab ta’lim va tarbiya konsepsiyalarini, texnologiyalarini yaratish kun tartibida turgan dolzarb vazifa bo‘lib qolaveradi. Bolalarda muvaffaqiyatli ta’lim-tarbiyani tashkil etishi uchun pedagog qanday usul va vositalardan foydalanishi zarur? Ta’lim tarbiya jarayonida tarbiyachi va o‘qituvchi shaxsi eng muhim omil bo‘lganligi tufayli; Nasriddin Tusiy “O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida” nomli asarida shunday fikrlarni ifodalaydi. “O‘qituvchi munozaralarni olib borishni rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchi o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin”.

O‘qituvchi o‘quvchilar ongiga ta’sir o‘tkazishda yetakchilikni o‘z qo‘liga kiritishi uchun 6 xil usuldan foydalanishi kerak.

1-usul. O‘quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo‘ladigan emotsional xis tuyg‘uga berilmaslik.

2-usul. Har bir o‘quvchining psixologik va ruhiy holatlarini puxta o‘rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishga harakat qilmasligi kerak.

3-usul. Har bir o‘quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi kerak.

4-usul. Sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatti-harakatidan doimo ogoh bo‘lishi kerak.

5-usul. Pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o‘zida takomillashtirib borish.

6-usul. O‘ylanmay aytilgan har bir so‘z, noo‘rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo‘lmasligini o‘qituvchi doimo his etishi lozim va bu usullar ta’lim tizimini samarali olib borilishi uchun xizmat qiladi.

Jumladan, o‘quvchilarning salbiy xatti-harakatlariga javoban pedagog dars jarayoniga xalaqit bermagan holda bunday o‘quvchilarga turli xil ta’lim metodlarini ularning individual xususiyatlariga mos tarzda qo‘llay olishi, shuningdek ular bilan jamoa oldida emas, individual tarzda shug‘ullanishi maqsadga muvofiqdir. Ta’limda individual yondashish kamchiliklarga barham berishnigina emas, balki o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, o‘qishga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni, bilishga oid qiziqishlarni tarkib toptirish ishlarini olib borishni ham anglatadi. O‘qishga salbiy munosabatda bo‘lish hollarida bunday munosabatni keltirib chiqargan sabablarga qarab, tarbiyaviy chora-tadbirlar ko‘rish kerak bo‘ladi. Bunday sabablar orasida o‘qituvchi bilan bo‘lgan kelishmovchilik,

o'quvchi duch kelgan qiyinchiliklar, bilimdagi nuqsonlar, o'z kuchiga ishonmaslik va hokazolar bo'lishi mumkin. O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi lozim.

Ta'lim vositalari — bu yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt bo'lib, ta'lim maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holda foydalaniladi. Biroq agar metodlar "qanday o'qitish?" savoliga javob bersa, vositalar esa "uning yordamida nimani o'qitish?" savoliga javob beradi. An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi. Hozirgi kunga kelib zamonaviy axborot texnika vositalari, kompyuter va internetni ham o'quv jarayonining tashkil etishida bevosita ishtirokini ko'rishimiz mumkin.

Muvaffaqiyatli ta'lim –tarbiyani samarali tashkil etishda, dars jarayonini dars mazmuniga mos keluvchi turli vositalar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi interfaol metodlardan keng miqyosda foydalanilib kelinmoqda. Dars jarayonining oqilona tashkil qilinishi natijasida, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirilib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishlari ta'lim sifatini yanada ko'tarib berishga xizmat qiladi.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan, pedagogning bilimdonlik darajasi masalasi ham o'ta muhim. Bular quyidagilar;

-Ijtimoiy bilimdonlik

-Uslubiy bilimdonlik

-Kasbiy bilimdonlik

Ushbu bilimdonlik darajalari asosida sinf bilan samarali sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish, barcha bilimlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olish va o'z ustida ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu borada Sharq mutafakkirlari ham o'z fikrlarini bayon etib o'tishgan. Binobarin, Farobiy barkamol shaxsni tarbiyalaydigan o'qituvchi qanday xususiyatga ega bo'lishi kerakligiga quyidagicha to'xtalib o'tadi: "O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishini bilmog'i, shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim". O'qituvchi o'zining keng, ma'noli va chiroyli nutqi orqali o'quvchilar

diqqatini tortib, o'z fikrlarini aniq ifodalab bera olsa, o'quvchilarga fanning maqsadini anglata olsa va eng asosiysi adolatli bo'lsagina bunday fidoiy o'qituvchilar insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi. Tabobat ilmining sultoni bo'lmish Ibn Sino esa: "O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i va o'quvchilarning butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim" deb takidlaydi.

Yosh avlodga ta'lim tarbiyani muvaffaqiyatli tashkil etishda, bolaga ta'lim-tarbiya berishda hamma ma'suliyat faqatgina o'qituvchi zimmasiga yuklatilmaydi, u oila (ota-ona) muhitiga, bolani o'rab turadigan guruh, jamoa muhitiga ham bog'liq bo'ladi, shuningdek ijtimoiy-institutlar (oilalar, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, oliy ta'lim, akademiyalar, mahalla-ko'y va boshqalar) ham bir maqsad yo'lida birlashsagina samarali bo'ladi.

N.I Pirogov – birinchilardan bo'lib, ta'lim-tarbiyaning amaliy emas, falsafiy ahamiyatga egaligini, inson ruhini tarbiyalash muhimligini e'tirof etgan. Bolalik o'z qonunlariga ega va ularni hurmat qilish kerak. "Agar bola jamiyat qonun-qoidalarini buzish xususiyatiga ega bo'lmasalar, bizning ham o'z navbatida bolalar dunyosining qonunlarini buzishga haqqimiz yo'q". Shunday ekan bolaga ta'lim-tarbiya berishdan oldin har bir bolalarning psixologiyasini o'rganish, bolalarning yoshga bog'liq xususiyatlariga ko'ra ta'lim-tarbiya tashkil etilsa, bola ta'lim jarayonini majburlikdan emas, balki o'zi qiziqib o'rganishni boshlaydi. Bu esa bolada shaxs faolligini shakllantirib beradi. Shaxs faolligi orqali bola o'z oldiga maqsad qo'ya oladi va unga erishish uchun mustaqil harakat qila oladi. Shaxs faolligini shakllantirishda ijtimoiy institutlar va oilaning o'rni beqiyosdir. Bolaning muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya olishiga jamiyat talab qo'yadi va bu talabni oilada tarbiya orqali singdirib, pedagog tomonidan anglatiladi. Muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiyani tashkil etish va ta'lim-tarbiya berish jarayonida pedagog va ota-onalar birgalikda ishlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog va ota-onalar bolalarning o'zlariga bo'lgan ishonchini shakllantirib, mustaqil fikrlay oladigan raqobatbardosh va fanlarni yaxshi o'zlashtira olishlariga zamin yaratib beradilar. Bolalarda ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etib, ularni har tomonlama yetuk ma'naviyatli va barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ota-onalar bamisoli bitta yangi uy qurayotganlarini tushunib eng asosiy va dastlabki fundamentni (tarbiyani) qo'yayotganliklarini anglagan holda mustahkam fundamentni qo'yib, endi bu uyni devorlarini (ta'limni) qurish uchun o'qituvchi bilan hamkorlik qilish lozim. Uyni qanday qurgan bo'lsak shundayligicha yaxshi saqlanishi uchun tashqi muhitni ham hisobga olishni unutmasligimiz kerak.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida ta'lim metodlari, vositalari va usullarini to'g'ri va o'rinli qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham pedagog o'qituvchilar o'z ustida sitqidildan ishlashi, kuchli kuzatuvchiga aylanib yuz berayotgan jarayonga nisbatan faol faollik ko'rsatishi, bolalar faoliyati va hamkorligini tashkillashtira olishi lozim.

Muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiyani tashkil etish usullari va vositalardan ko'zlangan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'qituvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. (Darslik). Toshkent., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
 - 2.Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Nazarova “Rivojlanish psixologiyasi.Darslik, «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti Toshkent - 2018, 602 bet
 - 3.«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» Toshkent nashriyoti-2018.
 - 4.E.G‘.G‘oziyev , I.F.Xaydarov, I.N.Xalilova “Umumiy psixologiya”. Fan va texnologiyalar. Toshkent nashriyoti-2010.
 - 5.I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. Ma’naviyat nashriyoti-2008.
 - 6.M.X.Toxtaxodjayeva, K.Hoshimov , S.Nishonova , M.Inomova, X.I.Ibragimov, Sh.A.Abdullayev . Pedagogika nazariyasi (darslik).
 - 7.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y
 - 8.O‘.Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” Toshkent., “Talqin” 2008 y
 - 9.A. To‘xtaboev, A. Eraliev “Tashkiliy xatti-xarakatlar” Andijon., “Xayot” 2001 y
 - 10.R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2004 y
- 8.Ziyonet.uz